



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
maktabgacha ta'lim agentligi

_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi agentligi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi huzuridagi
____-maktabgacha ta'lim tashkiloti
katta guruh tashkilyachisi

_____ning
"Ilk qadam" dasturi asosida

"UZ-SOZ"
ma'ruza tashkillangan

**FANOLLIYAT
ISHLANMASI**

(iyul oyining 1-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan
+99890-530-88-18 nomerga murojaat
qilishingiz jek456 izlab telegramga yozishingiz
yoki shu nomerdagi telegram orqali
bog'lanishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi
Katta guruhlarga iyul oyi 1-hafta "Yoz-soz"
mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan
faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun
telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Nabiyev Zokirjon plastik egasi



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng

yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga

joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Guruh: Katta guruhlar uchun

Oy mavzusi: QUVNOQ YOZ

Hafta mavzusi: Yoz-soz

Faoliyatning maqsadi:

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarni she'rning mazmunini tushunishga o'rgatish, yoz fasli haqidagi bilimlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: bolalarni tabiatni sevishga, asrashga va uning muhimligini qadrlashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: kichkintoylarning yoz fasli va tabiatida mavjud tasavvurlarini kengaytirish. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka o'rgatish.

Faoliyat uslublari: aqliy hujum, kichik guruhda ishlash, "Baliq ovi", "Boshqaruvchini top" o'yinlari.


Faoliyat jihozi: rangli qog'ozlar, mavzuga oid rasmlar, akvarium, markazlarda ishlash uchun zarur materiallar.

Faoliyatning borishi:

Tashkiliy qism: salomlashish marosimi (ingliz tilida ham).

TARBIYACHI: – Bolalar salomlashib olamiz. Buni qo'llarimizdan boshlaymiz.

- Salom mening qo'llarim! (qarsak)
- Hello, my hands!
- Salom mening oyoqlarim! (tap-tap)
- Hello, my feet!
- Salom mening yuzlarim! (oh-oh)
- Hello, my faces!
- Salom mening tishlarim! (tars-tars)
- Hello, my teeth!
- Salom mening burunlarim! (bum-bum)
- Hello, my noses!
- Salom mening o'rtoqlarim!



– Hello, my friends!

(Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab tepaga ko‘taradilar).

TARBIYACHI: – Bolajonlar, hozir men sizga topishmoq aytaman, javobini toping-chi?

Quyosh rosa qizdirar,

Cho‘milish tanga yoqar.

Qani toping bolalar,

Bu qaysi fasl bo‘lar?

BOLALAR: – Yoz.

TARBIYACHI: – Barakalla, bolajonlar, to‘g‘ri aytdingiz. Aqliy hujum.

TARBIYACHI: – Yoz fasli qaysi fasldan keyin keladi?

1-Bola: – Bahor faslidan keyin yoz fasli boshlanadi.

TARBIYACHI: — Qani ayting-chi, yozda qanday ichimliklar ichamiz?

2-Bola: — Suv, meva sharbatlari, ayran.

TARBIYACHI: — Shirintoylari qayerda cho‘milasizlar?

3-BOLA: — Basseyn, ariqlarda.

TARBIYACHI: – Barakalla, hozir men sizlarga bolalar shoiri Shukur Sa‘dullaning “Yoz” she‘ri o‘qiyman.

Keldi ko‘klam kabi so‘ngin,

Bizlar sevgan issiq yozin,

Ekin o‘sdi yerlarida,

Bug‘doy pishdi qirlarda.

Qip-qizardi olchalar,

Uzar yosh bolachalar.

Poliz to‘la bodiring,

Bog‘bon tez uzib bering.

Sabr qiling siz andak,

So‘yib beray handalak.

Quyosh ko‘kda nur sochar,



Yangi dunyolar ochar.
O'rik yetilib pishar,
Yerlarga to'p-to'p tushar.
Olma, anor, nok, bodom,
To'ymaydi yeb hech odam.
Yoz bo'yi bizda har xil,
Meva pishar xilma-xil.



She'rdarda yoz faslining issiq ekanligi, dalalarda bug'doy, polizlar, qandring, bog'larda nok, olma, olcha, bodom kabi mevalar g'arq pishib yetiladi.

Lug'at ishi:

Ko'klam — yashil degani, ekin — o't-o'simliklar o'sadigan joydagi o'simlik — ozgina deb tushuntiriladi.

“Baliq ovi” o'yini. O'yinning maqsadi bolalarni baliq ovlash qo'ndog'ini oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rnatilgan.

O'yin jihozlari: akvarium, magnitli qarmoq, baliq, baliq ovlash avat va turli predmetlarni aks ettiruvchi rasmlar.

Bolalar navbat bilan rasmdagi narsalarni ko'rib, ularni aytib, (ingliz tilida ham) u haqda ma'lumot beradilar.

“Boshqaru
vchini top”
tetiklashtir

uvchi
mashq

O'yin
qoidasi.

Bolalar
doira

bo'lib

turadilar.

Ulardan

biri



tashqariga chiqadi. Qolgan bolalar ichidan bitta boshqaruvchi tayinlanadi, boshqaruvchi bir necha harakatlarni bajartirib turadi. Shundan so‘ng tashqariga chiqqan bola chaqiriladi. U harakatlarni kuzatib, o‘yinni kim boshqarayotganligini topishi kerak. Agar topsa, boshqaruvchi tashqariga chiqadi, yangi boshqaruvchi tayinlanadi, topolmasa jarima belgilanadi. Jarima olgan bola biror o‘yin yoki she‘r aytib berishi kerak.

TARBIYACHI: – Bolalar, sizlardan o‘zingiz xohlagan markazlarga borib o‘tirishingizni so‘rayman. Pazandachilik markazida yoz faslida yaxshi ko‘rib iste‘mol qiladigan ayron tayyorlanib, unga pomidor, bodriy qo‘shiladi. San‘at markazida yozgi mevalarni turli usullarda: shisha, qog‘ozda “Rangin kaftchalar” texnologiyasi yordamida chizish. Qurilish markazida cho‘milish havzasi maketini yasash taklif etiladi. Har bir markazda taqdimotini o‘tkazadi. Shundan so‘ng kichkintoylar bilim olish uchun mustahkamlash uchun savollar beriladi.

1. Yozda qaysi mevalar pishadi?
2. Poliz ekinlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Ko‘klam deganda nimani tushunasiz?
4. Andak so‘zining ma‘nosini ayting.
5. Yozda bolalar qayerda cho‘miladi?
6. Yozda qanday ichimliklar pishadi?

Savollarga to‘g‘ri javob bergan bolalar o‘z g‘abatlantiriladi.



Til va nutq

Mavzu: Ezgi o‘yinlar rasmi ustida suhbat

Maqsad: bolalar rasmi mazmuni bo‘yicha suhbat qura oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, mavzuga oid rasmlar.

Faoliyatning borishi:

Mavzuga oid rasmlar va AKT namoyishini tomosha qilish.

Ko‘rgan vokea-hodisani tahlil qilish.

Mavzu asosida do‘sti bilan suhbat.

Yakuniy suhbat: Ez mavsumidagi siz yoqtirgan o‘yinlar

Qo‘shimcha: “Quyosh va yomg‘ir” o‘yini.

Alohida e‘tibor qaratiladi: rasmlarni tahlil qilinishiga, suhbatda vokea-hodisalarni ketma-ketligini to‘g‘ri tuzilganligi.



Fan va tabiat

Mavzu: Suv va qum bilan tajribalar

Maqsad: bolalar suv va qum bilan tajribalar o‘tkaza oladilar.

Kerakli jihozlar: AKT, toza suv, qum, stakan, bir martali stakanchalar, muz bo‘laklari, nam qumdan narsalar yasash.

Faoliyatning borishi:

AKT orqali slayd va rasmlarni tomosha qilish.

Suv va qumni ko‘zdan kuzatish.

Qumni qo‘llari bilan his qilish va tahlil qilish.

Suvni qo‘li bilan his qilish va uning xususiyatlarini aytish (ta‘mi, rangi, shakli).

Muz bo‘lakchalarini quyosh nurlari ostida erishini kuzatish.


Qumga suv aralashtirish va hosil bo‘lgan massani izohlash.

Nam qumdan narsalar yasash.

Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi yordamida suvning bug‘ga aylanish tajribasini o‘tkazish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: suvni tejash.



San'at

Mavzu: Sho'x kapalakchalar

Maqsad: bolalar kapalaklarning turli ko'rinishlarini rasmlarda tasvirlay oladilar. Kerakli jihozlar: kapalaklar tasvirlangani rasmlar, namuna, rangli shamchalar yoki mo'yqalam, rangli bo'yoq, bo'yoq, flomasterlar.

Faoliyatning borishi:

Turli ko'rinishdagi kapalaklar rasmlarini namunani tomosha qilish.

Rasm chizish uchun materiallarni tayyorlash.

Jarayonning borishi.

Ijodiy ishlar taqdimoti.

Qo'shimcha: rasmni yana qo'shimcha kapalaklar bilan boyitish.

Qurish, yasash va matematika

Maqsad: bolalarda qo'l yozma matematikasi rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: yoz fasli rasmlar, suratlar,

namuna, pazllar Faoliyatning borishi:

Yoz fasli asosidagi rasmlar va namunani tomosha qilish.

Pazllar yig'ish jarayoni.

Jarayonni do'stlari bilan muhokama qilish.

Qo'shimcha: yoz fasliga doir she'rlar yod oldirish, ota-onalar uchun bolalar ishlaridan ko'rgazma tayyorlash.

Alohida e'tibor qaratiladi: bo'laklarni to'g'ri tanlangani va joylashtirilgani

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish Mavzu: Qo‘g‘irchoq teatri
(bolalar xohishiga ko‘ra)

Maqsad: bolalar asarning nomi va uning mazmunini biladilar, nom va mazmunning uyg‘unligini ko‘ra oladilar.

Kerakli jihozlar: o‘rmon aks etgan shirma, ikki ayiqcha, ona ayiq, tulki, pishloq bo‘laklari, har xil rangdagi geometrik shakllar chizilgan teatr chiptasi (shu shakllar stullarga ham chiziladi).

Faoliyatning borishi:



Ertak syujetini esga olish.

Rollarni taqsimlash va qo‘g‘irchoq teatri sahnalashtirish.

Qo‘shimcha qism: sahnalashtirilgan teatr chiptasi har bir guruh bolalariga namoyish etish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bir-biri bilan munosabatda bo‘lish, bo‘lishish va imkon berishga o‘rnatilgan.

Yakuniy qism: rag‘batlantirish.

